

Toshkent viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Toshkent viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 7 396,8 mlrd so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 6 833,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 471,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 91,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Toshkent viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida

2026- yilning yanvar-mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Zangiota (608,7 mlrd so'm), Yangiyo'l (694,7 mlrd so'm) va O'rta Chirchiq (599,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Nurafshon (12,9 mlrd so'm), Ohangaron (18,0 mlrd so'm) va Yangiyo'l (9,9 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Toshkent viloyati	7 396,8	102,4
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	14,0	107,2
Olmaliq	30,6	102,2
Angren	75,0	81,9
Bekobod	68,2	94,9
Ohangaron	18,5	104,2
Chirchiq	54,8	104,2
Yangiyo'l	11,1	101,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	397,9	105,4
Ohangaron	368,0	103,0
Bekobod	508,4	104,9
Bo'stonliq	519,1	101,1
Bo'ka	389,0	95,7
Quyi Chirchiq	361,6	102,1
Zangiota	608,7	101,8
Yuqori Chirchiq	473,7	101,7
Qibray	513,7	104,3
Parkent	463,0	107,7
Piskent	316,0	100,7
O'rta Chirchiq	599,9	102,9
Chinoz	497,8	105,3
Yangiyo'l	694,7	102,7
Toshkent	385,6	103,5

**Toshkent shahri hajmi qo'shilgan holda*

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (107,2 %), Chirchiq (104,2 %) shaharlari va Parkent (107,7 %), Oqqo'rg'on (105,4 %), Chinoz (105,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Angren (81,9 %), Bekobod (94,9 %) shaharlari va Bo'ka (95,7 %), Piskent tumanlarida o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026- yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 6 664,1 mlrd so'mni yoki 2025- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 469,4 mlrd so'mni (100,9 %), chorvachilik mahsulotlari 6 194,8 mlrd so'mni (101,9 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (656,0 mlrd so'm), Zangiota (558,1 mlrd so'm) va O'rta Chirchiq (527,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (9,9 mlrd so'm), Nurafshon (12,9 mlrd so'm) va Ohangaron (18,0 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Parkent (106,7 %), Yangiyo'l (105,3 %), Quyi Chirchiq (105,1 %), Qibray (104,0 %) va Chinoz (103,5 %) tumanlarida qayd etildi. Bekobod (92,7 %), Angren (96,3 %) shaharlarida va Bo'ka (93,6 %), O'rta Chirchiq (98,3 %) va Piskent (100,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari nisbatan pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 18,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (611,0 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (506,6 mlrd so'm), Zangiota (490,0 mlrd so'm), Bo'stonliq (479,0 mlrd so'm) va Qibray (452,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (9,9 mlrd so'm), Nurafshon (12,8 mlrd so'm) va Ohangaron (17,9 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (104,8 %), Ohangaron (102,0 %) shaharlari, Parkent (107,2 %), Yangiyo'l (105,6 %) tumanlarida qayd etildi. Bekobod (92,7 %) shahar va O'rta Chirchiq (99,4 %), Bo'ka (98,8 %), Bo'stonliq (98,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 77,9 ming tonna go'sht, 179,3 ming tonna sut, 271,4 mln dona tuxum va 3,3 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, sog'ib olingan sut – 104,7 % ni, olingan tuxum – 100,7 % ni hamda ovlangan baliqlar – 132,6 % ni tashkil qildi.

2026- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 2,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 77,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,1 foizi fermer xo'jaliklari, 82,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 9,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2026- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2026- y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (<i>tirik vaznda</i>), ming tonna	320,3	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,4	111,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	215,6	98,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	94,3	110,8
Sut, ming tonna	1 095,4	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	62,1	116,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	962,7	98,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	70,6	142,9
Tuxum, mln dona	1 754,1	108,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,3	161,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	960,7	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	789,1	116,9
Jun, tonna	1 723,0	96,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	355,0	101,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 260,0	94,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	108,0	102,9
Baliq, ming tonna	23,4	107,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,1	122,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,1	123,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,2	105,9

Shu bilan birga, olingan tuxumning 0,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 54,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 45,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 13,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 0,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 86,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht <i>(tirik vaznda), tonna</i>	Sut, <i>tonna</i>	Tuxum, <i>ming dona</i>
Toshkent viloyati	320 352,0	1 095 425,0	1 754 061,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	503,2	2 174,0	973,9
Olmaliq	456,8	10 007,2	1 811,7
Angren	3 658,7	8 223,2	3 170,4
Bekobod	6 454,9	10 454,4	6 067,2
Ohangaron	566,8	2 769,2	1 886,5
Chirchiq	625,6	8 047,0	6 764,0
Yangiyo'l	312,1	1 742,0	1 073,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	17 313,8	76 259,6	43 412,9
Ohangaron	20 605,9	69 624,1	106 740,8
Bekobod	23 202,2	92 920,1	52 941,9
Bo'stonliq	27 777,0	113 851,9	186 155,2
Bo'ka	18 730,2	58 751,0	73 698,4
Quyichirchiq	12 912,1	55 141,4	77 568,9
Zangiota	24 153,2	45 912,6	219 530,6
Yuqori Chirchiq	20 838,7	111 587,8	149 082,0
Qibray	15 316,9	58 649,4	284 632,6
Parkent	15 755,5	82 836,2	53 327,3
Piskent	20 568,1	54 335,2	51 614,1
O'rta Chirchiq	25 638,3	60 599,9	134 245,1
Chinoz	12 631,0	63 993,6	67 564,8



Yangiyo'l	42 187,9	64 335,2	118 313,2
Toshkent	9 221,1	36 754,0	101 471,9

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Toshkent (81,8 mlrd so'm), Chinoz (63,4 mlrd so'm), Zangiota (68,1 mlrd so'm), Yangiyo'l (45,0 mlrd so'm) va Qibray (30,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha nisbatan kam hajm Ohangaron (0,1 mlrd so'm), Yangiyo'l (0,05 mlrd so'm) va Nurafshon (0,05 mlrd so'm) shaharlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq (4,4 m) shahar va Quyi Chirchiq (197,8 %), Oqqo'rg'on (159,4 %), Bo'stonliq (131,8 %) tumanlarida qayd etildi. Angren (36,7 %), Yangiyo'l (45,7 %), Ohangaron (73,8 %) shaharlari va Bo'ka (96,9 %), O'rta Chirchiq (81,3 %) tumanlarida esa o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da
Toshkent viloyati	278,5	3,5 m.
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon		
Olmaliq		
Angren	42,5	63,4
Bekobod		
Ohangaron		
Chirchiq		
Yangiyo'l		
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on		
Ohangaron		
Bekobod		
Bo'stonliq	1,0	
Bo'ka		
Quyi Chirchiq		
Zangiota	0,3	
Yuqori Chirchiq		
Qibray	3,0	



Parkent	0,2
Piskent	
O'rta Chirchiq	
Chinoz	6,5
Yangiyo'l	
Toshkent	225,0

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Toshkent (80,8 %), Chinoz (2,3 %) tumanlari va Angren (15,3 %) shahriga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Zangiota (0,1 %), Parkent (0,1 %) va Bo'stonliq (0,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da
Toshkent viloyati	13 739,2	102,0
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	-	-
Olmalik	3,4	37,0
Angren	51,2	107,0
Bekobod	-	-
Ohangaron	1,2	54,1
Chirchiq	24,4	-
Yangiyo'l	-	-
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	595,0	366,2
Ohangaron	209,0	62,5
Bekobod	193,2	97,9
Bo'stonliq	103,0	10300,0
Bo'ka	101,1	9,8
Quyichirchiq	228,0	636,8
Zangiota	3 080,7	102,2
Yuqori Chirchiq	121,0	155,5
Qibray	1 257,9	104,3
Parkent	18,0	100,0
Piskent	1,2	1,2
O'rta Chirchiq	248,4	49,4
Chinoz	2 775,1	119,2
Yangiyo'l	1 512,1	103,4
Toshkent	3 215,4	110,4



Yetishtirilgan sabzavotlarni umumiy hajmining eng yuqori ulushi Toshkent (23,4 %), Zangiota (22,4 %), Chinoz (20,2 %), Yangiyo'l (11,0 %), va Qibray (9,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Angren (0,4 %) va Chirchiq (0,2 %) shaharlarida kuzatildi.

2025- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (103,0 m.), Quyi Chirchiq (6,4 m.), Oqqo'rg'on (3,4 m.), Yuqori Chirchiq (155,5 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1- aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 604,3 ming boshga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,5 % ga kam), sigirlar - 253,2 ming boshga (37,5 % ga kam), qo'y va echkilar – 698,0 ming boshga (35,2 % ga kam), parrandalar – 12 205,1 ming boshga (29,1 % ga kam) yetdi.

2026- yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	604,3	60,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	61,2	73,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	505,4	58,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	37,6	67,4
shundan sigirlar	253,2	62,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,1	76,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	223,7	61,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,4	77,7
Qo'y va echkilar	698,0	64,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	215,8	69,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	428,5	62,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	53,7	71,2
Otlar	34,3	62,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,9	76,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	23,4	56,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,9	98,1
Parrandalar	12 205,1	70,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	57,8	44,7



dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 899,9	61,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 247,4	82,8

2026- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 10,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 83,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 30,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 61,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 0,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 48,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 51,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026- yilning 1- aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni, birlik

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Toshkent viloyati	604 277	697 957	12 205 093
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	-	-	-
Olmaliq	3 656	11 668	16 444
Angren	14 634	19 814	28 628
Bekobod	5 753	10 800	33 684
Ohangaron	983	631	5 445
Chirchiq	782	1 515	31 514
Yangiyo'l	135	-	40 000
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	69 848	41 088	340 853
Ohangaron	59 019	173 196	728 902
Bekobod	73 437	33 519	361 229
Bo'stonliq	49 658	112 182	1 577 586
Bo'ka	12 341	6 581	100 647
Quy Chirchiq	42 608	14 060	972 956
Zangiota	28 723	14 218	1 646 561
Yuqori Chirchiq	46 937	28 285	959 029
Qibray	17 999	19 631	1 685 120
Parkent	45 738	98 205	405 083
Piskent	41 150	59 592	1 448 651
O'rta Chirchiq	7 226	7 624	543 553
Chinoz	49 943	28 215	424 944



Yangiyo'l	5 666	1 744	160
Toshkent	26 714	14 261	848 744

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.



**Toshkent viloyati
statistika boshqarmasi**

*E'lon qilish sanasi:
25.04.2026-y.*

PRESS-RELIZ
*Toshkent viloyatida
qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Quttiboyev
71 203-45-00 (4610)

Manzil:
Toshkent sh, Yangi Qo'yliq
ko'chasi, 2-uy
